

## TURKISTON JADIDCHILIK TA'LIMOTIDA MILLIY TA'LIMNING AHAMIYATI

Nizomiddinxo'jayev Otabek Ruslan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15960995>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston jadidlari namoyondalari ma'naviy merosi, ijtimoiy-axloqiy qarashlari, ta'lim – tarbiyaga oid fikrlari tahlil qilingan. Ularning milliy uyg'onish va ma'naviy yuksalish konsepsiyasi, jamiyatni ijtimoiy yuksaltirish uchun yoshlarga zamonaviy ilm-fanni o'rgatish masalalari o'rganildi. Muallif ma'rifatparvar jadidlarning Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik g'oyalarini milliy taraqqiyot uchun samarali foydalanish haqidagi qarashlari, mamlakatni innavatsion tafakkur orqali rivojlantiruvchi omillar haqidagi fikrlarining futurologik jihatları tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, jadid-ma'rifatparvarlar, milliy ta'lim, tarbiya, yoshlar, ilm-fan, zamonaviy maktablar, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, A.Fitrat.

### KIRISH

O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida jamiyat rivoji va ta'lim-tarbiya masalalariga doir yangicha g'oya va qarashlarining ilmiy asoslanganligini ko'rsatishdan iborat. Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lida bormoqdamiz" deya ta'kidlagan. Bu borada jadidlarning nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida e'tirof etilgan Vatanga muhabbat va sadoqat, bag'rikenglik, oilani muqaddas qadriyat sifatida e'zozlash va mustahkamlash, ma'naviy ogohlik, gumanizm va ma'rifiy islom qadriyatlariga rioya etish, komil insonni tarbiyalash kabi g'oya va qarashlari dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni tarakkiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama ko'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga xarakat kilinayotgani bejiz emas.

Milliy ta'lim va tarbiya tizimi rivojlantirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asosidir. Ta'lim – tarbiya sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Bu jarayonlarda «Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchii muallim deb ulug'lanadigan Aristotelning "Vatan takdirini yoshlar tarbiyasi xal qiladi", degan so'zlari, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli xayot kechira boshlagan davrdan buyon, ta'lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'lim-tarbiya masalalari mamlakatimiz tarixidagi har ikkala Uyg'onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning, davlat rahbarining yuksak e'tibori bo'lib kelgan.

Barcha davrlarda ma'rifatchilik yo'nalishi asosan uch soha orqali taraqqiy topib borgan. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot (gazeta va jurnallar). Shu sababli, Turkiston jadid namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir singari ma'rifatparvarlarimizning o'z davrida ham yangi avlod ta'lim va tarbiyasi muammolari faqat orzu bo'lganligi, jamiyat taraqqiyotida o'zgarishlar qilish esa oson kechmasligini, ulug' maqsadlarga erishish esa millat madaniyati, ma'rifati, ilm-fanning rivoji bilan bog'liqligini har tomonlama teran anglaganlar.

### **NATIJALAR**

O'zbekistonda jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, ilm-ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash, ularning ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, shaxs ma'naviyati, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari tadqiq etildi. Jadidlarning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanish mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston jadid ma'rifatparvarlari tomonidan insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlari Yangi O'zbekiston yoshlari ongi va qalbiga singdirish va ularning dunyoqarashida mehnatsevarlik, ziyolilik, innovatsion tafakkur madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadidlarning qarashlari jahondagi ilg'or ma'rifatchilar ilmiy- nazariy merosini egallashga intilish, zamonaviy bilimlarni chuqur o'rganish, ushbu g'oyalarni ijtimoiy hayotga tadbiiq qilish natijasida mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati o'rganildi.

### **MUHOKAMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 1-oktyabr "O'qituvchilar va murabbiylar" kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayotganligi haqida, "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak" deb ta'kidlab o'tdilar.

Yurtimizda Uchinchi Renessans g'oyasi ham davlatning, ham yoshlarning, ham ota-onalar va ustozlarning orzu istaklarini birlashtirib, bugun va kelajakni birlashtiruvchi hayotbaxsh g'oya bo'lgani uchun ham Prezidentimiz Uchinchi Renessans masalasini milliy g'oya sifatida ko'tardilar.

Mustaqillik sharoitida jadidchilik tiklandi va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbeklar madaniyatida buyuk aqliy va intellektual harakat sifatida qaraldi, konseptual nuqtai nazardan jadidchilik ta'limoti biz tasavvur qilganimizdan ko'ra ham boy ahamiyat kasb etdi. Fidoyilik bilan inson ma'naviyagini changallab olgan jaholat, ilmsizlikdan qutilishga jiddi-jahd qilgan jadidlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ldi. Jadidlar harakatining Turkistondagi otasi mufti Mahmudxo'ja Behbudiy ma'naviy merosida maktablarda barcha ilmlarni baravar o'qitganini bilamiz. "Padarkush" yoxud o'qimagan bolaning holi» asarining mohiyatida ham ilmsizlikning ayanchli oqibati tasvirlangan. Drama sahnalarida ilm - ma'rifatdan uzoq Boy huzuriga Mulla kirib keladi va bolalariga diniy ilmlarni o'qitish zaruratini aytadi. Bir ozdan keyin Behbudiy Ziyolini boyning oldiga olib kiradi. Ziyoli dunyo ilmlarini targ'ib etadi. Behbudiyning istalgan ana shunday badiiy, ijtimoiy - ma'naviy asarlarini o'rganadigan bo'lsak, ularda ilm-ma'rifatga bo'lgan intilishni ko'ramiz.

Jamiyatda ma'naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omil, mamlakat yoshlarining zamonaviy ta'lim olishi, oiladagi tarbiya masalasi dolzarbligini jadidlar ma'rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", "Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir" degan fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Ma'rifatparvar allomaning yuqoridagi fikrlari, o'z navbatida XX asr boshida millatimiz taqdiri va hayotida naqadar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, ushbu fikrning hozirgi vaqtda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning bundan bir asr muqaddam aytgan so'zlari, teran fikrlari hozir ham o'z dolzarbligini va jozbasini yo'qotmagan. Chunonchi, "Bizlarni jaholat qarong'uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur.... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmi bog'lidir" deydi.

Shu sababli ta'lim tizimida yangi "Tarbiya" fanini joriy etildi. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning milliy qadriyatlar asosida yaratgan "Turkiy Guliston" yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda "Tarbiya" fanining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda jadid ma'rifatparvarlar ma'naviy merosidan samarali foydalanilmoqda.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy, ijtimoiy ug'onishda va mamlakat ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Turkistonlik jadidlar o'z maqola, darsliklar va asarlarida Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, zamonaviy ta'lim orqali yechish yo'llarini ko'rsatganlar, yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganishga, jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagidan ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetukolimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqqanlar, ularni yurti obod, farovon etishlariga ishonganlar.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. -Toshkent.: Ma’naviyat, 2017.- B.184.
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2021 yil, 464 bet
3. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 1998. <http://ark.cdlib.org/ark:/13030/ft8g5008rv>
4. Бехбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1997. - 280 б.
5. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд: Пандлар, ибратлар, хикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. -Тошкент: Маънавият, 2006. -304 б.
6. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Маънавият, 2008. -62 б.
7. Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент.: Маънавият, 2006. –336 б.
8. Амридинова Д.Т. Миллий таълим-тарбия ривожланишида жадидчилик маънавий-меросининг аҳамияти // Хорижий филология. – Самарқанд, 2019. –№3. – Б.19-21.